



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil "28" iyun

BUYRUQ № 150

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Rasmiy statistikada sifatni ta'minlashning milliy tayanch prinsiplari bo'yicha qo'llanma"si (NQAF) talablari asosida rasmiy statistika sohasida sifatni boshqarish ishlarini tizimli tashkil etish maqsadida, **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi) sifat sohasidagi siyosati (keyingi o'rinlarda – Sifat siyosati) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo'yilsinki, Statistika agentligi tizimida sifatni boshqarish va baholash tizimlarini, sifatni ta'minlashning milliy asosiy prinsiplarini joriy etish va statistika faoliyatining samaradorligini yanada oshirish ishlari Sifat siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023-yil 27- martdagi 13-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (G. Salixova) mazkur buyruqni Statistika agentligi markaziy apparati bo'linmalariga tanishtirilishini va hududiy statistika organlari e'tiboriga yetkazilishini tashkil etsin.

4. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov